

ENERGETIKA SOHASIDAGI HAMKORLIKNI SIFAT JIHATIDAN
YANGI DARAJAGA OLIB CHIQAIDIGAN TARIXIY VOQEA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan 5-7-oktabr kunlari rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.



Prezident Shavkat Mirziyoyev 7-oktabr kuni Moskva shahridagi Islom Karimov xiyoboniga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari mamlakatimizning Birinchi Prezidenti haykali poyiga gul qo‘yib, uning yorqin xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan birgalikda Rossiyadan Qozog‘iston hududi orqali O‘zbekistonga tabiiy gaz yetkazib berilishiga start berdi.

Teleko‘prik tarzida o‘tgan marosimda davlatimiz rahbari energetika sohasidagi uch tomonlama hamkorlikni sifat jihatidan yangi

darajaga olib chiqadigan ushbu voqeaning tarixiy ahamiyatini qayd etdi.

O‘zbekiston Prezidenti Qozog‘iston va Rossiya yetakchilariga ushbu loyihaning ro‘yobga chiqarilishini shaxsan qo‘llab-quvvatlaganlari uchun minnatdorlik bildirdi. Gaz yetkazib berishni juda qisqa muddatda tashkil etish, magistral gaz quvuri qismlarini rekonstruksiyalash, kompressor stansiyalarini modernizatsiya qilish va yangi “Beynov” gaz-o‘lchov stansiyasini qurish ishlarida ishtirok etgan mutaxassislariga alohida rahmat aytdi.

Rossiya gazini “revers” tarzda import qilish boshlanayotgani O‘zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega ekani ta’kidlandi. Ushbu loyiha mamlakatimiz energetik xavfsizligini ta’minlash,

“moviy yoqilg‘ini”ni kafolatli yetkazib berish manbalarini diversifikatsiya qilish yo‘lida oldinga tashlangan katta qadam, iste‘moldagi mavsumiy nomutanosiblikni qoplash, aholini gaz va elektr energiyasi bilan ishonchli va uzluksiz ta’minlash uchun energiya resurslarining qo‘shimcha hajmlari demak.

Ushbu yirik loyihaning ro‘yobga chiqarilishi va uning natijalari uch mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarni yanada mustahkamlashga xizmat qilishiga ishonch bildirildi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Rossiya Federatsiyasiga rasmiy tashrifi yakunlandi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

BIZ VA DUNYO

O‘ZBEKISTON PREZIDENTINING
ROSSIYAGA TASHRIFI

mamlakatimiz jahon hamjamiyati uchun jozibador hamkorga aylanib borayotganini yana bir bor namoyon etdi

Shavkat Mirziyoyevning 5-7-oktabr kunlari Rossiyaga rasmiy tashrifi xorijiy mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy va ekspert-tahlil doiralari vakillarida katta qiziqish uyg‘otdi.



Solih Yilmaz,
“RUSEN” Rossiya va MDH
mamlakatlarini o‘rganish instituti
direktori (Turkiya):

— O‘zbekiston va Rossiyani strategik sheriklik hamda ittifoqchilik munosabatlari bog‘lab turadi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiyaga bu galgi tashrifi voqealarga boy va mazmunli bo‘ldi. Tashrif doirasida Rossiya Prezidenti Vladimir Putin, Hukumat raisi Mixail Mishustin va Tatariston Raisi Rustam Minnixonov bilan uchrashuvlar o‘tkazdi. Uchrashuvlarda ikki tomonlama munosabatlarni yanada

mustahkamlash borasida keng ko‘lamli dolzarb masalalar muhokama qilindi.

Uchinchi mintaqalararo hamkorlik forumini Qozon shahrida o‘tkazishni muhim deb bilaman. Forum yakunlari bo‘yicha umumiy qiymati 3,5 milliard dollarlik shartnomalar imzolangan Rossiya biznesining O‘zbekistonga katta qiziqishi borligidan dalolat beradi.

Bu Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida mamlakatimiz iqtisodiyotini liberallashtirish va qulay biznes muhitini yaratish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning yorqin natijasidir.

Davomi 2-betda

INSON HUQUQLARI VA KONSTITUTSIYA

IJTIMOIY-SIYOSIY YANGILANISHLAR

fuqarolarning tabiiy huquqlari ta’minlanayotganida ham aks etmoqda

Bu yil Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 75 yilligi dunyo miqyosida keng nishonlanmoqda. Prezidentimizning joriy yil 12-maydagi farmoni bilan mamlakatimizda ham bu sanaga doir turli tadbirlar tashkil etib kelinyapti.

Davomi 3-betda

YUKSAK MA’NAVIY MAKON YARATISHDA
MUSTAHKAM ASOSLARGA TAYANISHIMIZ ZARUR

Joriy yil 11-sentabr kuni Prezidentimiz “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonni imzoladi. Unda mamlakat taraqqiyoti va jamiyat rivoji yo‘lida belgilab olingan eng ustuvor vazifalar qatorida ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash masalasiga ham alohida e’tibor qaratildi.

Bugun butun jamiyat oldida turgan o‘tkir masala yangi ma’naviy makonni yaratish, milliy birlik va hamjihatlik asosida xalqimizning bunyodkorlik salohiyatini yanada yuksaltirish, yoshlarni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash hamda ularning to‘laqonli zamonaviy bilimlarni egallashiga zarur sharoit yara-

tib berishdir. Bugun biz dunyoning geosiyosiy manzarasidagi chuqur o‘zgarishlar fonida turli mafkuralar, qarashlar o‘z ta’sirini yoyishga, o‘tkazishga bo‘lgan intilishlari keskin tus olayotgan bir davrda yashamoqdamiz.

Davomi 3-betda



FARMON VA IJRO

QISHLOQ EMAS, SHAHAR DEYSIZ



— Mahallada barcha sharoitga ega ko‘p qavatli uylar qurilar ekan, degan gaplar tarqalganda ba’zi birovlar “Qishloq tugul, ayrim katta shaharlarda ham bunday uylar yo‘q-ku, buyam uyni sotish uchun to‘qilgan bir yolg‘onda”, deya istehzoli kulib, uy olishni istamagandi, — deydi Jarqo‘rg‘on tumani Qorayantoq mahallasidagi yangi uylarning birida yashovchi Rustam Omonov. — Bugun o‘sha odamlar afsuslanib yuribdi. Chunki olgan uyimizda barcha sharoitlar bor. Bu yerlarni qishloq emas, shahar deysiz. Shahardan qoladigan joyi yo‘q.

Aholining uy-joy sharoitini yaxshilash, hududlarda shaharsozlik talablari asosida ko‘p qavatli uylar, ijtimoiy soha va infratuzilma obyektlari hamda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari qurilishi bo‘yicha Surxondaryo viloyatida katta ishlar amalga oshirilyapti.

Prezidentimizning 2021-yil 9-dekabrda “Yangi O‘zbekiston” massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonidan so‘ng bu boradagi ishlar yanada jonlandi.

Davomi 2-betda

FARMON VA IJRO

QISHLOQ EMAS, SHAHAR DEYSIZ

Boshlanishi 1-betda

Farmon ijrosini ta'minlash bo'yicha 2022-2026-yillar mobaynida viloyatning Angor tumanidagi Sharq guli, Jarqo'rg'on tumanidagi Qorayantoq, Sariosiyo tumanidagi Lutfikor, Boysun tumanidagi Mustaqillik mahallalari hududida "Yangi O'zbekiston" massivlari doirasida ko'plab uy-joy hamda savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalari barpo etish ko'zda tutilgan. Jumladan, Sharq guli mahallasi hududidan ajratilgan 11,5 gektar yerda 408 ta oilaga mo'ljallangan 17 ta, Qorayantoq mahallasi hududidan ajratilgan 24,5 gektar maydonda 458 ta xonadonga mo'ljallangan 20 ta, Lutfikor mahallasida 31 gektar yerda 708 ta xonadonga mo'ljallangan 19 ta, Mustaqillik mahallasida 7,7 gektar yerda 200 ta oilaga mo'ljallangan 10 ta ko'p qavatli uy quriladi. Shuningdek, massivlardagi yangi uy-joylarda yashaydigan aholi salomatligini saqlash va farzandlari ta'lim-tarbiyasi uchun maktab, bolalar bog'chasi, tibbiyot shoxobchalari bunyod etiladi.

Ayni damda "Yangi O'zbekiston" massivlarida zamonaviy, barcha qulay-

liklarga ega bo'ladigan uy-joy, maktab va bog'chalar qurish jadal davom etirilmoqda. Surxondaryo viloyati qurilish boshqarmasidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra, Jarqo'rg'on tumanidagi Qorayantoq mahallasi hududida o'tgan yili qurilishi boshlangan ko'p qavatli turar joylarning 3 tasiga yaqinda odamlar ko'chib kirdi. Yil oxirigacha yana 426 oila uyli bo'ladi. Shuningdek, sport zaliga ega 330 o'rinni maktab, 180 o'rinni maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda 50 qatnovga mo'ljallangan oilaviy poliklinika ham foydalanishga topshiriladi.

Angor tumani Sharq guli mahallasidagi "Yangi O'zbekiston" massivida iyun oyida 9 ta ko'p qavatli uyga fuqarolar ko'chib o'tdi. Hozirda ko'p qavatli uylarning qolgan 4 tasida ichki parvozlash, boshqa 4 tasida fasad qismini bo'yash ishlari olib borilmoqda. Talab va taklifdan kelib chiqib, quruvchilar shu manzilda yana 6 ta ko'p qavatli uy qurilishini boshlagan.

"Yangi O'zbekiston" massivlarida bajarilayotgan ishlarni bilish maqsadida Sa-

riosiyo tumanida bo'ldik. Tumanda aholi nisbatan ko'p, shu bilan birga, uy-joyga talab ham ortmoqda. Unumdor yerlarda aholini ishlilik bilan birga, oziq-ovqat mahsulotlari, paxta, g'alla yetishtirish ham kerak. Tuman rahbarlari Lutfikor mahallasi hududida "Yangi O'zbekiston" massivi uchun joy tanlashda ming bir mulohaza qilib ko'rdi. Taklif qilingan manzilda, garchand dehqonlar uzoq yillar ziroat ekib kelgan bo'lsa-da, ko'zlangan hosilni yetishtira olmagan. Sug'orilsa, negadir ko'llab yotaveradi, ekilgan ekin rivojlanmay, rangi sarg'ayib qoladi, kam hosil beradi. Dalaning shu jihatini inobatga olgan mutaxassislar oqsoqqullar bilan kengashib, past rentabelli ushbu joyni ko'p qavatli uylar qurishga ajratadigan bo'ldi. Insonning qadami yetgan joy obod bo'ladi, degan maqsadda zamonaviy shaharsozlik talablari asosida quriladigan uy-joylarga eng qulay manzil deb mahallaning chekkarog'idagi 31 gektar maydon ajratildi.

Quruvchilar bu manzilda o'tgan yili bunyodkorlik ishlarini boshlagan edi. Yaqinda har biri 20 xonadonga mo'ljallangan 11 ta besh qavatli, 68 oilaga mo'ljallangan bitta to'qqiz qavatli uy foydalanishga topshirildi. Yangi uylar qurilishi munosabati bilan massiv hududiga tabiiy gaz, ichimlik suv tarmoqlari tortildi. Shubhasiz, yangi uylarga ko'chib kirganlar hisobiga ma-

halla aholisi soni ko'paydi. Yashovchilar darhol uylari atrofi, yo'l chetlarini obodonlashtirishga kirishdi. Ekilgan mevali va manzarali daraxtlarga har kuni suv quyilgani uchunmi, issiqda ham o'zini tutib ketdi, turfa anvoyi gullar yashnab, kishiga zavq bag'ishlaydi.

Yangi uylardan birida yashayotgan Nilufar Hamidova bilan suhbatlashdik.

— Bu uylarning bitishini, o'zimizning alohida uyimiz bo'lishini anchadan beri orzu qilardik. Chunki necha yillardan beri qaynana, ovsinlar bilan bir hovliida yashab, ancha qisilib qolgandik. Quruvchilarga rahmat, uyni tez va sifatli qurib topshirishdi, — deydi Nilufar. — Marhamat, uyga kirib ko'ring, hech kim 3 xonali deb o'ylamaydi, xonalar katta, shinam, yorug'. Hamma sharoitlar muhayyo. Shukur qilamiz.

Aholining uy-joyga bo'lgan talabini qondirish maqsadida Lutfikor mahallasidagi "Yangi O'zbekiston" massivida zamonaviy ko'p qavatli uylar qurilishiga xususiy pudrat tashkilotlari ko'proq jalb etilgan. "Uy-joy qurilish invest", "Abror kafolat sifat", "Oltinsoy servis", "E'zozaxon omad qurilish", "Bahora jahon davr", "Halol mehnat — Go'zal piramida", "Iron Konkrets", "Javohir—Jahongir" xususiy korxonalar bilan birga afg'onistonlik va tojikistonlik investorlarning "Omar Ruhin investmen", "Basalt Moliya Group" MCHJ

bunyodkorlari har biri 20 ta xonadonga mo'ljallangan 11 ta 5 qavatli hamda 8 ta 9 qavatli zamonaviy uylar qurayotgani shohidi bo'ldik. Qurilish-montaj ishlarini davom ettirayotgan bunyodkorlarning ma'lumotlariga ko'ra, shu yilning oxirigacha har biri 20 xonadonga mo'ljallangan 14 ta besh qavatli hamda 54 ta oilaga mo'ljallangan bitta 7 qavatli, har biri 68 oilaga mo'ljallangan 2 ta to'qqiz qavatli uy qurib bitkaziladi.

Aholiga qulaylik yaratish maqsadida barcha ko'p qavatli uylarning birinchi qavatli savdo va xizmat ko'rsatish nuqtalariga mo'ljallab qurilayapti. Massivda tajribali quruvchi Xusrav Rahmonov boshliq "SarAZIA Modern stroy" MCHJ 330 o'rinni ikki qavatli maktab binosini foydalanishga topshirdi. Maktabga tash manzilda 180 o'rinni davlat maktabgacha ta'lim muassasasi bolajonlarni allaqachon o'z bag'riga olgan. Bundan tashqari, tadbirkorlarga hududda ikkita savdo va maishiy xizmat ko'rsatish obyektini qurish uchun "E-Ijro" auktioni orqali umumiy maydoni 14 sotixdan iborat yer ajratib berilgan. Shuningdek, massivda umumiy maydoni 3 gektardan iborat "Eko bozor" barpo etiladi.

Sariosiyo tumanida "Yangi O'zbekiston" massivida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishish jarayonida bizga hamrohlik qilgan tuman qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshlig'i, tuman bosh me'mori Baxtiyor Jumayevdan bir masalaga aniqlik kiritishni so'radik.

— Bundan uch yil ilgari tuman hokimligi idorasiga yaqin joyda qurilgan ko'p qavatli uydan chiqadigan oqova suv kanalizatsiya tarmog'iga ulanmagani, yana ham aniqrog'i, bunday tarmoq yo'qligi uchun aholi norozi. Lutfikor mahallasi hududi tuman markazidan ancha olis. Bu yerdagi "Yangi O'zbekiston" massivida qurilayotgan

ko'p qavatli uylardan chiqadigan oqova suvni oqizish uchun kanalizatsiya tizimi barpo etish bo'yicha qanday choralar ko'rilyapti?

— "Yangi O'zbekiston" massivida bunyod etiladigan ko'p qavatli uylarning kanalizatsiya va suv ta'minotida muammo bo'lmaydi, — deydi Baxtiyor Jumayev. — Chunki Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-avgustdagi "2019–2022-yillarda Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumani va Sharq'un shahrini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, Sariosiyo shaharчасi qayta rekonstruksiya qilinmoqda. Shunga asosan, "O'zshaharsozlikLITI" DUK mutaxassislari tomonidan loyiha ishlari to'liq yakunlangan, massivda barpo etilayotgan barcha uy-joylar va xizmat ko'rsatish shoxobchalarining ichimlik suv ta'minotini yaxshilash va oqova suvni kanalizatsiyaga ulash yuzasidan keng ko'lami ishlar amalga oshirilayapti.

— Mahallamiz hududida ko'p qavatli uy-joylar qurilib, aholi soni ko'payishi bilan birga, hududimiz kun sayin chiroy ochib, obod bo'lyapti, — deydi Lutfikor mahallasidagi raisi Xayrulla Bekov. — Bundan chorak asr ilgari suv kelsa, ko'llab yotadigan bu manzil shunchalik o'zgarib ketadi, deb hech kim o'ylamagandi. Ko'p qavatli uy-joylar qurilishi, muhtasham inshootlar barpo etilishi yurtimizning har jihatdan imkoniyati ko'pligidan darak beradi.

Surxondaryo viloyat qurilish boshqarmasidan berilgan ma'lumotlarga suyanadigan bo'lsak, Termiz tumanida ham aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyoji inobatga olinib, Yangiobod mahallasi hududidan "Yangi O'zbekiston" massivi qurilishi uchun yer ajratilgan. Joriy yilda bu manzilda 1980 ta oilaga mo'ljallangan 18 ta 16 qavatli uy-joy barpo qilinadi. So'nggi xabarga ko'ra, ko'p qavatli uylar qurishda tajribasi bor, salohiyatli qurilish tashkilotlari bilan shartnomalar tuzilib, loyihalash ishlari boshlangan.

Usmonali NORMATOV,
jurnalist



“ Quruvchilar bu manzilda o'tgan yili bunyodkorlik ishlarini boshlagan edi. Yaqinda har biri 20 xonadonga mo'ljallangan 11 ta besh qavatli, 68 oilaga mo'ljallangan bitta to'qqiz qavatli uy foydalanishga topshirildi. Yangi uylar qurilishi munosabati bilan massiv hududiga tabiiy gaz, ichimlik suv tarmoqlari tortildi. Shubhasiz, yangi uylarga ko'chib kirganlar hisobiga mahalla aholisi soni ko'paydi. Yashovchilar darhol uylari atrofi, yo'l chetlarini obodonlashtirishga kirishdi.

BIZ VA DUNYO

O‘ZBEKISTON PREZIDENTINING ROSSIIYAGA TASHRIFI

mamlakatimiz jahon hamjamiyati uchun jozibador hamkorga aylanib borayotganini yana bir bor namoyon etdi

Boshlanishi 1-betda

Tomonlar O'zbekistonda sog'liqni saqlash, ta'lim sohasini raqamlashtirish, shuningdek, Rossiyaning ilg'or tajribasidan foydalangan holda respublikada elektron tijoratni joriy etish sohasidagi loyihalarni birgalikda amalga oshirish masalalarini muhokama qilgani, shubhasiz, ushbu tashrifning asosiy amaliy yutuqlaridan biri bo'ldi.

Ishonchim komilki, davlat rahbarlarining sanoat kooperatsiyasi bo'yicha yil bo'yi o'zaro tashriflar reja-jadvalini o'z ichiga olgan "yo'l xaritasi"ni tayyorlash yuzasidan kelishuvga erishgani O'zbekiston va Rossiya ishbilarmon doiralari o'rtasidagi hududlararo hamkorlik va bevosita aloqalarni amaliy rivojlantirishda katta rag'bat bo'lib xizmat qiladi.

Rivojlanayotgan madaniy-gumanitar hamkorlikka alohida e'tibor qaratilmoqda. Moskvada "Lazgi" milliy baleti premyerasi va O'zbek kinosi kunlarining tashkil etilishi Rossiya jamiyati uchun O'zbekistonning boy



Andrey Xriyenko,
"Vektor" Xalqaro strategik tadqiqotlar instituti direktori (Rossiya):

— O'zbekiston Prezidentining Rossiyaga rasmiy tashrifi, shubhasiz, muhim voqea bo'lib, nafaqat Rossiya — O'zbekiston ikki tomonlama munosabatlari, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun strategik ahamiyatga ega.

Mazkur tashrif O'zbekiston xalqaro va mintaqaviy kun tartibidagi eng dolzarb muammolari hal etishda izchil, samarali va konstruktiv ishtirok etayotganidan dalolatdir. Shuningdek, u ushbu muammo keng kontekstida zamonaviy dunyoning tobora ortib borayotgan chaqiriqlari va tahdidlariga yechimlar hamda amaliy javoblarni ishlab chiqishda ishtirok etadi.

Yana bir muhim jihati shundaki, O'zbekiston amalda Rossiya bilan ham, boshqa xorijiy hamkorlar bilan ham iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, aniq savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy loyiha hamda dasturlarni samarali amalga oshirishning yuqori sur'atlarini namoyish etmoqda. Shu bois, tashrif kun tartibidan aynan ikki davlat o'rtasidagi strategik sheriklik masalalari, iqtisodiy va gumanitar sohalaridagi amaliy hamkorlik masalalari o'rinni oladi.

Ayniqsa, O'zbekiston Prezidentining rasmiy tashrifi davomida Tataristonga tashrif buyurgani va



Rais Rustam Minnaxanov bilan muzokaralar o'tkazgani o'zaro iqtisodiy aloqalar, jumladan, mintaqaviy hamkorlik orqali amalga oshirilayotgan aniq loyihalarni yuksak samara berayotganini tasdiqlaydi. Tatariston Respublikasi ikki tomonlama muloqot doirasidagi sa'y-harakatlarni kuchaytirishga ishora qilmoqda.

Albatta, ikki davlat rahbarlarining muzokaralari, shuningdek, O'zbekiston Prezidentining Rossiya Hukumati Raisi Mixail Mishustin bilan uchrashuvi ham ikki tomonlama munosabatlarning eng yuqori darajasidan dalolat beradi.

Qolaversa, Prezident Shavkat Mirziyoyevning joriy yil 5 oktabrdan 7-oktabrgacha Prezident Vladimir Putin taklifiga binoan amalga oshirgan rasmiy tashrifi Rossiya yetakchisining tug'ilgan kuniga to'g'ri kelishining o'zi ham ikki davlat rahbarlari o'rtasidagi alohida iliq va do'stona munosabatdan darakdir.

Xolid Mahmud,
"Novogen (Pharma)" kompaniyasi asoschisi (Pokiston):

— Prezident Shavkat Mirziyoyevning Rossiyaga tashrifi nafaqat O'zbekiston, balki respublikaning strategik savdo-iqtisodiy hamkori bo'lgan Pokiston biznes va ishbilarmon doira vakillari uchun ham muhim ahamiyatga ega. Chunki O'zbekiston nafaqat mintaqadagi strategik savdo-iqtisodiy hamkor, balki mahsulotimizni Rossiya va boshqa MDH mamlakatlarida ilgari surish uchun tranzit mamlakatdir.

An'anaga ko'ra, O'zbekiston rahbarining rasmiy tashrifi iqtisodiy kun tartibidan boshlandi. Prezident "Kazan Ekspo" ko'rgazmasiga tashrif buyurib, Rossiyaning yetakchi korxonalarini sanoat mahsulotlari va texnologiyalari bilan tanishdi. Rossiyaning yetakchi "Alabuga" va "Master" texnoparklari bilan birgalikda O'zbekistonda yangi sanoat parklarini tashkil etish boshqaruvi o'zaro hamkorlikni kengaytirishga ishora qilmoqda.

Sirdaryo viloyatida tashkil etilgan "Novugen Pharma" kompaniyamiz bir necha yildan buyon O'zbekiston farmatsevtika bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritib, sanoat kooperatsiyasining yorqin namunasini ifodalaydi.

O'zbekiston — Rossiya savdo-iqtisodiy munosabatlari o'zbek tovarlari va xizmatlarini sotishda



naqadar muhim ekanini shaxsiy tajribamdan bilaman. O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarimizning asosiy qismi Rossiya va MDHning boshqa davlatlariga eksport qilinayotgani bois, mamlakatimiz rahbarining rossiyalik hamkasbi bilan uchrashuvlari va kelishuvlarini diqqat bilan kuzatib boramiz.

Albatta, Rossiyada erishilgan kelishuvlar korxonamiz va O'zbekistondagi boshqa tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlari turini ko'paytirish hamda eksport salohiyatini kengaytirish imkoniyatini oshiradi.

Pokiston va Janubiy Hamda G'arbiy Osiyoning boshqa mamlakatlari geografik jihatdan O'zbekistonga yaqin, umumiy tarixiy ildizlarga ega va asrlar davomida transport yo'laklari orqali bog'lanib kelgan. Shu bois, O'zbekiston rahbarining mintaqalararo aloqalarni o'rnatish borasidagi doimiy sa'y-harakatlari Pokiston va Janubiy Osiyoning boshqa mamlakatlari tomonidan faol qo'llab-quvvatlanmoqda.

Su Chan,
Xitoy Ijtimoiy fanlar akademiyasining Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo instituti yetakchi ilmiy xodimi:

— Prezident Shavkat Mirziyoyevning Rossiyaga rasmiy tashrifi voqealarga juda boy kechdi. O'zbekiston rahbari Qozon va Moskvada qator tadbirlar o'tkazdi. Savdo, sarmoyaviy, transport va madaniy-gumanitar sohalarida o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan ikki tomonlama muhim hujjatlar to'plami imzolandi.

O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi o'zaro savdodagi sifat o'zgarishlari alohida e'tiborga loyiqdir. Agar ilgari o'zaro tovar ayiriboshlash tarkibida xom-ashyo ustunlik qilgan bo'lsa, hozirda qariyb 70 foizni yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar tashkil etadi.

Ikki davlat o'rtasidagi sarmoyaviy sohada ham shunday ijobiy o'zgarishlar kuzatilmog'ida. Keyingi yillarda iqtisodiyotning yengil va kimyo sanoati, avtomobilsozlik, sog'liqni saqlash, farmatsevtika kabi



boshqa tarmoqlarida ham qo'shma loyihalar soni sezilarli darajada oshdi.

Shavkat Mirziyoyevning Rossiyaga joriy rasmiy tashrifi yakunlari O'zbekiston jahon hamjamiyati uchun jozibador hamkorga aylanib borayotganini yana bir bor namoyon etdi. Shubhasiz, buning zamirida so'ngi yillarda amalga oshirilgan keng ko'lami islohotlar mamlakatni Markaziy Osiyoda dinamik, diversifikatsiyalangan iqtisodiyotga aylantirishga xizmat qilmoqda.

“ Shavkat Mirziyoyevning Rossiyaga joriy rasmiy tashrifi yakunlari O'zbekiston jahon hamjamiyati uchun jozibador hamkorga aylanib borayotganini yana bir bor namoyon etdi. Shubhasiz, buning zamirida so'ngi yillarda amalga oshirilgan keng ko'lami islohotlar mamlakatni Markaziy Osiyoda dinamik, diversifikatsiyalangan iqtisodiyotga aylantirishga xizmat qilmoqda.

Mars Sariyev,
mustaqil ekspert, siyosatshunos (Qirg'iziston):

— Hozirgi paytda rasmiy Toshkent va Moskva o'rtasidagi munosabatlar misli ko'rilmagan yuksak darajaga ko'tarildi. O'zbekiston ham Rossiya kabi Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashdan manfaatdor, shuningdek, tomonlar global muammolarni hal etish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo'yicha bir-birining tashabbuslarini faol qo'llab-quvvatlaydi.

O'ylashimcha, O'zbekiston muvozanatli xalqaro siyosat yuritmoqda. Xabaringiz bor, O'zbekiston rahbari yaqinda "C5+1" tashabbusi doirasida AQSHga amaliy tashrif bilan bo'ldi va u o'zining samarali mazmun-mohiyati bilan ajralib turdi. Xuddi shunday holat hozir, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiyada bo'lganida ham kuzatilmoqda. Ishonch bilan aytish mumkin, O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi siyosiy sheriklik izchil rivojlanib bormoqda va u juda mustahkam. Ikki davlat o'rtasida tuzilgan ko'plab shartnomalar buning yaqqol dalilidir.

Nazarimda, har ikki davlat ham Markaziy Osiyo mintaqasining strategik sherikligi va barqaror



rivojlanishidan manfaatdor. Ikki tomonlama munosabatlarning yanada kengayishi Moskvada imzolangan yangi bitim va kelishuvlar bilan belgilanadi va bu, shubhasiz, mintaqa barqarorligiga katta hissa qo'shadi.

Ta'kidlash joziki, O'zbekiston rahbarining uzoqni ko'zlagan strategiyasi Yevrosiyo makonida qit'amizda barqarorlik va tinchlikni ta'minlashga xizmat qiladigan yagona strategik sheriklik siyosati zarurligidan dalolat beradi.

"Dunyo" AA

O'ZBEKISTON STRATEGIYASI 2030

“

O'zbekistondagi yangilanishlar insonni ulug'lash, uning qadr-qimmatini joyiga qo'yish, haq-huquqlarini himoyalash, og'irini yengil, uzog'ini yaqin qilish, dardiga quloq tutib, muammosini hal etishdan boshlandi. Bu bejiz emas. Chunki yuksak taraqqiyot yo'lini tutgan davlatda shunday bo'ladi. Kuchayotgan davlat asosida, avvalo, inson qadri va adolat turadi. Bu ikki muhim qadriyatlar davlat har qancha rivojlanmasin, u chinakam xalqparvar davlat bo'lolmaydi.

Maktablarni chinakam ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat o'chog'iga aylantirish uchun ta'lim-tarbiyaning interaktiv usullarini joriy qilish ham eng dolzarb vazifa sifatida belgilangani bejiz emas.

keng ommalashtirish hamda rivojlantirish bo'yicha yangi yondashuvlarni joriy qilishga ham alohida e'tibor qaratilgan. Milliy qadriyatlar va ma'naviy meros har bir millatning tili, urf-odatlarini, tarixi, madani-

YUKSAK MA'NAVIY MAKON YARATISHDA MUSTAHKAM ASOSLARGA TAYANISHIMIZ ZARUR

Demak, ma'naviy tarbiyani har tomonlama kuchaytirish va baholashning ilmiy asoslangan indikatorlari ishlab chiqish, interaktiv usullarni qo'llash orqali maktablarni nafaqat yuksak ta'lim, balki

yati, an'analarini, barcha moddiy va ma'naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha tomonlarini o'zida qamrab

bo'yicha tanlovlar tashkil etish, taqdim etilgan asarlarni jiddiy saralash va badiiy jihatdan salmoqlarini chop etish kerak. "O'zbek adabiyoti

parvarlik harakatiga aylanmoqda. Qudratli islohotlar shiddati, xalqimizning g'ayrati, bunyodkorlik ruhi bunga dalolat!

Bunyodkor xalq qudrati! U qachon namoyon bo'ladi, u nimadan kuch oladi?




Minhojiddin HOJIMATOV, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari

Boshlanishi 1-betda

Ayniqsa, axborot sohasi jadal rivojlanmoqda. Global internet tarmog'i ijtimoiy-siyosiy jihatdan turli darajadagi davlatlar va mintaqalar o'rtasidagi siyosiy va geografik chegaralarni olib tashladi. Bunday imkoniyatlardan ayrim buzg'unchi kuchlar qora niyatlarini amalga oshirish yo'lida mafkuraviy qurol sifatida foydalanmoqda. Bunday murakkab sharoitda aholi, ayniqsa, yoshlarimizning qalbi va ongini yot, zararli g'oyalardan asrash, milliy-ma'naviy immunitetini mustahkamlash orqali nafaqat o'zlarining hayotini, oila a'zolarini, balki yurtimizni himoya qilishimiz, bu borada eng yuksak tinchlik va hamkorlik madaniyatiga eltuvchi milliy g'oyamiz, ajdodlarimizdan qolgan bo'y merosimiz, insonparvar qadriyatlarimizga, ijtimoiy muhitni mustahkamlovchi, yangi ma'naviy makon yaratishga zamin bo'luvchi asoslarga tayanishimiz zarur.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash vazifasi qo'yilgan. Unga ko'ra, mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g'oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash hamda shu asosda ma'naviy tarbiya uzviylikini ta'minlash bosh masala sifatida belgilangan.

Darhaqiqat, bugungi globallashuv sharoitida jamiyat birligini saqlash, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini to'la ta'minlash, turli mafkuraviy xuruj va tahdidlarga qarshi milliy g'oya asosida kurashish o'ta dolzarb bo'lib turibdi. Jadal rivojlanish yo'lida chiqqan mamlakatimizga nisbatan g'araz niyat bilan qarovchilar ham uchrab turadi. Bugungi kunda bunday buzg'unchi kuchlar turli yo'llar bilan osuda makonlarni taraqqiyot yo'lidan chalg'itish, ayniqsa, o'sib kelayotgan yoshlarning ongi va qalbinu egallash uchun internet tarmoqlaridan foydalanmoqda. Chunki internet ijobiy, progressiv ahamiyatli tomonlari bilan birga, mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga ham aylandi. Jamiyat hayotidagi ma'naviy xavsizlik va barqarorlikni ta'minlashda mafkuraviy xurujlarga qarshi kurashda, eng avvalo, milliy g'oya asos bo'lib xizmat qiladi.



chinakam ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat o'chog'iga aylantira olamiz. Chunki zamonaviy bilimlar va yuksak ma'naviy tarbiya bilan qurollangan yoshlarga mustaqil fikrlay oladi hamda hayotdagi turli muammolarni hal qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mazkur talablar kelajakda jamiyatning asosiy o'zlagiga aylanadi. Demak, ta'lim-tarbiyaning ma'naviyat bilan uyg'unlashuvi yosh avlodni nafaqat bugungi kunga, balki kelajakdagi hayotga ham tayyorlaydi.

Oila, maktab, mahalla — ijtimoiy institutlarning uch birligi millatimizni jahonda ro'y berayotgan ma'naviy tanazzullar ta'siridan asrab qolishda ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan yaratuvchanlik g'oyasi, millatimizning hayot tarzi, ularning orzu-umidlari, ongu tafakkuri, milliy ma'naviy negizlariga tayanadi.

Oilada berilgan to'g'ri tarbiya maktabda yanada kuchaytirilib, bilim bilan ong shakllantiriladi, mahalla instituti esa milliy-ma'naviy qadriyatlar asosidagi tarbiyani amalga oshiradi. Tasavvuf ilmi bilimdoni Yahyo ibn Muoz ibn Ja'far ar-Roziy aytadi, "O'ta-onalar farzandlarini dunyo o'tashidan onalari qiladi, bilim esa ularni jaholat va oxirat olovidan muhofaza etadi". Darhaqiqat, oilada berilgan tarbiya farzandning hayot mashg'ullarini yengib o'tishda asqotsa, maktab bergan tarbiya farzandni bilimga oshno etadi, dunyo eshiklarini ochib beradi.

Mazkur maqsadda milliy qadriyatlar va ma'naviy merosni asrab-avaylash,

oladi. Shu bois, qadriyatlar millatning ma'naviy qiyofasini aks ettiradi. Asrlar osha yashab kelayotgan, o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtiga muhabbat, ajdodlar xotirasiga sadoqat, ota-onani e'zozlash, yoshi ulug'larga ehtirom, kichiklarga izzat-ikrom, bironing haqiqat xiyonat qilmaslik, har qanday sharoitda ham hayo va andisha saqlash, oilasini asrab-avaylash singari insoniy fazilatlar milliy qadriyatlarimizning asosini tashkil etadi. Bu qadriyatlar yosh avlodning hayotiy ehtiyojlariga aylanishi zarur.

Ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda ilmiy va sotsiologik tadqiqotlar muhim o'rinni tutadi, shu bois, sotsiologik so'rovlarimiz ahamiyatiga ham alohida o'rinni berilgan. Bugungi kunda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tomonidan jamiyat hayotini ijtimoiy-siyosiy jihatdan tadqiq etish, sohadagi muammolar tahlilini ishlab chiqish, ularga yechim topish yo'llarini o'rganish ishlarini olib borilmoqda. Lekin bu yetarli emas. Bugun dunyoning mafkuraviy qiyofasi tez yangilanmoqda, globallashuv jarayoni murakkab tusga kirmoqda, g'oyalari, qarashlari o'zgarimoqda. Demak, jamiyatning yurak urishini diqqat bilan eshitish, uning bir ramonda ishlashini ta'minlash eng muhim vazifadir.

Shuning uchun jamiyatdagi ijtimoiy-ma'naviy muhit bo'yicha izchil tadqiqotlar qilish, targ'ibot ishlarini samaradorligini ilmiy asoslangan monitoringini ta'minlash,

sotsiologik so'rovlar o'tkazish hamda amaliyot uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zarur.

Strategiyada o'zbek va jahon adabiyoti durdonalarini keng ommalashtirish, jamiyatda kitobxonlikni hamda aholiga axborot-kutubxonaxona xizmatini ko'rsatishni rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratilgan. Unga ko'ra, kitobxon yoshlar sonini 5 millionga yetkazish, jamiyatda kitobxonlikni qadriyat darajasiga ko'tarish masalasi ilgari surilgan. Bu bejiz emas. Ta'lim-tarbiyaning negizida kitob mutolaasi yotadi. Chunki kitob — inson umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, har qanday vaziyatda ham hamroh bo'luvchi sodiq do'st. Shu bois, bola tarbiyasida uning o'rni muhim. Millatning ma'naviy-ruhiy dunyosini kitobga munosabati, kitobxonlik darajasiga qarab ham aniqlash mumkin.

Jahon madaniyatiga munosib hissa qo'shgan ajdodlarimiz erishgan yutuqlarining asosiy omili ham kitob mutolaasidir. Shu bois, aholining kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Zero, azal-azaldan ma'rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o'qishga, undan ilmu odub sirilarini o'rganishga chorlab kelgan.

Aynan kitob asrlarni asrlarga, zamonlarni zamonlarga, rishtalarni rishtalarga ulovchi vositadir. Shuning uchun nafaqat yoshlarga, balki aholining barcha qatlamida kitob o'qish, axborot olish

bo'yicha tanlovlar tashkil etish, taqdim etilgan asarlarni jiddiy saralash va badiiy jihatdan salmoqlarini chop etish kerak. "O'zbek adabiyoti

parvarlik harakatiga aylanmoqda. Qudratli islohotlar shiddati, xalqimizning g'ayrati, bunyodkorlik ruhi bunga dalolat!

Bunyodkor xalq qudrati! U qachon namoyon bo'ladi, u nimadan kuch oladi?

INSON HUQUQLARI VA KONSTITUSIYA

IJTIMOY-SIYOSIY YANGILANISHLAR

fuqarolarning tabiiy huquqlari ta'minlanayotganida ham aks etmoqda

Azizjon JO'RAYEV, Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani prokurori yordamchisi

Boshlanishi 1-betda

Yangi O'zbekiston islohotlari, avvalo, inson huquq va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan bilan xalqaro miqyosda e'tirof etilmoqda. Buni turli jabhalarda ko'rish mumkin. Mamlakatimizda birgina joriy yilning o'tgan davrida amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy yangilanishlarning o'ziyiq fikrimiz tasdig'i bo'la oladi.

Gap shundaki, umumxalq referendum natijalariga ko'ra qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz o'zining insonparvarlik tamoyillari bilan xalqchilik kasb etmoqda. Bu jihatlar Asosiy qonunimizning har bir moddasida o'z aksini topgani bilan ahamiyatli. Yana bir e'tiborli jihat esa yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz Inson huquqlari

umumjahon deklaratsiyasi prinsiplarini o'zida qamrab olganida ko'zga tashlanadi.

Masalan, deklaratsiyada "Hech kim qiynoqqa yoki shafqatsiz, g'ayrinsoniy yoki qadr-qimmatini xo'rlovchi muomala va jazoga duchor etilmasligi kerak"ligi belgilangan. Bu moddaga hamohang tarzda Bosh qonunimizda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umumie'tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda mamlakatimiz huquqiy tizimining tarkibiy qismi ekanini mustahkamlangan. Shu tariqa Konstitutsiyamiz yangi modda bilan boyib, insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizligi, hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'la olmasligi, hech kim qiynoqqa solinishi, zo'rovonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayrinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yod qat'iy jazoga duchor etilishi mumkin emasligi ta'kid belgilandi.

Bu bilan mamlakatimizda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida har kimga tug'ilishi bilan taqdim etiladigan tabiiy huquqlari ka-

folatlanishi ilk bor konstitutsiyaviy asosda mustahkamlandi.

Yangi O'zbekiston islohotlari fonida huquq-tartibot organlari faoliyatining ham mul'toqo yangi qiyofasi shakllandi. Bugun ular xalq manfaatlarini himoya qiladigan tuzilmaga aylandi.

Yana bir misol. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida "Hech kim asossiz qamalishi, ushlanishi yoki quvg'in qilinishi mumkin emas"ligi o'rin olgan.

Konstitutsiyamizning yangi tahririda ham aynan shu moddaning huquqiy ifodasini ko'rish mumkin. Unga ko'ra, hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi, O'zbekiston fuqarolari mamlakatdan tashqariga majburiy chiqarib yoki boshqa davlatga berib yuborilishi mumkin emasligi konstitutsiyaviy asosda mustahkamlangan.

Bundan anglashiladiki, yangi jamiyatimizda inson, uning huquq va manfaatlarini

himoya qilish bosh maqsad sifatida belgilangan. Bu jihatlarni inson huquqlariga doir turli amaliyotda, xususan, "Miranda qoidasi" va "Xabeas corpus" tamoyillari amalda qo'llanilayotganida ham ko'rish mumkin. Ya'ni endilikda shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslarini tushuntirilishi shart, deb belgilab qo'yildi. Bu inson huquq va erkinliklarini ta'minlash kafolati, jumladan, umume'tirof etilgan institutlar konstitutsiyaviy darajada kuchaytirilayotganidan dalolat beradi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz tamoyillari uyg'unligi yana bir muhim jihatda ko'ramiz. Bu fuqarolarimizning o'z mamlakati ichida erkin harakatlanish huquqiga haqiqiy ma'noda ega bo'lganidir.

Deklaratsiyada har bir inson har bir davlat doirasida erkin yurish va yashash joyini tanlash, har qanday mamlakatdan, xususan, o'z mamlakatidan chiqib ketish va qaytib kelish huquqiga egaligi qayd etilgan.



To'g'ri, eski tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanishi, ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalar bilan belgilangan burchlarini ado etishiga doir norma bor edi. Bosh qonunimizning yangi tahririda esa mamlakatimiz hududida qonuniy asoslarda bo'lib turgan har kim mamlakat bo'yab erkin harakatlanishi, turar va yashash joyini tanlash huquqiga egaligi ochiq ifoda etilgan. Shuningdek, har kim mamlakatdan tashqariga erkin chiqish, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi o'z

yurtiga to'sqinlik qaytish huquqiga egaligi belgilab qo'yildi.

Hozir biz misol qilib keltirgan uch asosda ham ko'rish mumkinki, mamlakatimizda amalga tatbiq etilgan konstitutsiyaviy normalar inson huquqlarini ta'minlash yo'lida xalqaro tamoyil va normalarga to'la mos keladi. Bundan tashqari, yangi O'zbekiston o'z fuqarolarini nafaqat mamlakat ichida, balki chet ellarda ham himoya qilishga qodir davlat sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 75 yilligi keng nishonlanayotgan shu kunlarda O'zbekiston o'z ichki siyosatida ham, tashqi aloqalarida ham insonparvarlik tamoyillariga asoslangani bilan alohida shuhrat qozonmoqda.



RAQAMLI TRANSFORMATSIIYA

AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV TIZIMI

UNING IQTISODIY SAMARADORLIGI QANDAY?

Raqamli transformatsiya yangi innovatsion biznes modellarini yo'lga qo'yish, ishbilarmonlik jarayonida qo'llanadigan qurilmalar, ijtimoiy media, mobil, bulut, tahlil va buyumlar interneti kabi texnologiyalar vositasida operatsiyalarni maqbullashtirish va mijozlar uchun qiymat hamda tajribani oshirish orqali faoliyat samaradorligini takomillashtirishga xizmat qiladi. Prezidentimiz ta'бири bilan aytganda, "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda".



qayta ishlovchi 3-mis boyitish fabrikasi ishga tushirildi. Tizim 130 dan ortiq kamera, 835 radioqaydli yoritkich va 6 ta avtomatlashtirilgan tibbiy ko'rik uskunasi orqali smenadan oldingi ko'rik jarayonini elektron shaklga o'tkazish, 750 dan ortiq xodim harakatini kuzatish imkonini berdi. Natijada ishlab chiqarish samaradorligi 6 foizga oshirildi, yer osti kon qazish jarayonida tezkor boshqaruvni tashkil etish va ishlar xavfsizligi ta'minlandi, konchilar va dispatcher o'rtasida uzluksiz aloqa tashkil etildi, shuningdek, yuqori qon bosimi bo'lgan ishchilar soni 10 foizdan 3 foizgacha kamaydi.

Jizzax va Sherobod sement zavodlarida tayyor mahsulotni yuklab jo'natishning avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi joriy etildi. Shu tufayli tayyor mahsulotni yuklab jo'natish jarayoni to'liq elektron shaklga o'tkazilib, shaffoflik ta'minlandi va ish samaradorligini oshirish hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish vaqtini ikki barobar qisqartirishga erishildi.

— Ma'lumotlarga qaraganda, rangli va qimmatbaho metall ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha loyiha doirasining o'zida 500 dan ortiq yuqori samarali kon-transport texnikalari xarid qilingan. Shu paytga qadar ular va mavjud vositalar yordamida 100 million kub metr dan ortiq kon yuzasini ochish ishlari bajarilgan. Bu yil ishlab chiqarish obyektlari, jumladan, tashqi suv, gaz va elektr ta'minoti inshootlari, ma'danni qayta ishlash va joyiga yetkazib berish konveyer tizimi foydalana-

tomatlashtirilgan "Kon dispatcher" tizimi ishga tushirildi. Tizim 130 dan ortiq kamera, 835 radioqaydli yoritkich va 6 ta avtomatlashtirilgan tibbiy ko'rik uskunasi orqali smenadan oldingi ko'rik jarayonini elektron shaklga o'tkazish, 750 dan ortiq xodim harakatini kuzatish imkonini berdi. Natijada ishlab chiqarish samaradorligi 6 foizga oshirildi, yer osti kon qazish jarayonida tezkor boshqaruvni tashkil etish va ishlar xavfsizligi ta'minlandi, konchilar va dispatcher o'rtasida uzluksiz aloqa tashkil etildi, shuningdek, yuqori qon bosimi bo'lgan ishchilar soni 10 foizdan 3 foizgacha kamaydi.



nishga topshiriladi. Shu kabi ishlarda raqamli texnologiyalar qanday o'rin tutadi? Ularni joriy etishning dastlabki loyihalari qanday samara keltiriyapti?

— Vaqt yugurik. Uning har lahzasidan oqilona foydalanish kutilganidan yuqori samara keltiradi, ayniqsa, raqamlashtirish sohasida. Xususan, kombinatda transport monitoringining takomillashtirishi hisobiga tizimga ulangan transport vositalarining umumiy soni 2 ming 150 taga yetdi. Yoqilg'i-moylash materiallarini hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimi tadbir etilishi esa 2022-2023-yillarda 23,6 ming tonna dizel yoqilg'isi tejashiga, avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalarida xizmat ko'rsatish vaqtini ikki barobar qisqartirishga imkon yaratadi va o'z navbatida, shaffoflik ta'minlandi.

Mavjud transport vositalaridan samarali foydalanish uchun kombinat mutaxassislari tomonidan avtotransport va logistikani boshqarish tizimi ishlab chiqildi. Bu mamlakatimiz bo'yicha birinchi marotaba qog'oz shaklidagi yo'l varaqalaridan elektron shaklda foydalanishga o'tishga imkon yaratdi. Onlayn monitoringning yo'lga qo'yilishi tufayli avtotransportdan foydalanish samaradorligi 4 foizga oshdi, qog'oz hujjatlar almashinuvi 70 foizga kamaydi.

1S:ERP asosida buxgalteriya hisobi va ma'lumotlar konsolidatsiyasi avtomatlashtirilgan tizimi foydalanishga topshirildi. Bu orqali buxgalteriya hisobi moliyaviy hisob-kitob operatsiyalari, tovar-moddiy boyliklar, asosiy vositalar harakati va boshqalarga doir 6 ta an'anaviy tajribadan voz kechilib, yagona elektron



Joriy yilda Mis boyitish fabrikasining texnologik zanjiridagi asosiy qurilmalarni prediktiv diagnostika tizimi (uskunalarda avariya holatlarini erta aniqlash), Mis eritish zavodida elektroliz jarayonida qisqa tashuvlarning oldini olish bo'yicha tajribaviy loyihalar ishga tushirildi.

tizimning yuritilishi natijasida hujjatlar bilan ishlash va hisobotlarni shakllantirish vaqti 50 foizga kamaydi, ma'lumotlar ishonchligi oshdi, davriy hisobotlarni tayyorlash vaqti 15 kungacha qisqardi.

Bundan tashqari, 1S:ERP tizimida "Xarid va omborni boshqarish" modu-

kirish, ish vaqti tabelini tuzish, "Elektron jurnallar" axborot tizimida topshiriqlarni berish, 50 dan ortiq oshxonada "E-Talon" qo'llash, elektron yo'l varaqalarini rasmiylashtirish, tibbiy ko'rikdan o'tishda xodim shaxsini tasdiqlashda foydalanilmoqda. Qog'ozli tibbiy kartalarni elektron shaklga o'tkazish, shaffoflikni ta'minlash va kombinat xodimlarining kasbiy kasalliklarini tahlil qilish maqsadida OKMK poliklinikasi va dispanserida axborot tizimi ishga tushirildi. Bu davriy tibbiy ko'riklar va muolajalarni onlayn monitoring qilish va hisobotlarni shakllantirish imkonini berdi.

Yuqoridagi loyihalarni amalga oshirish va biznes jarayonlarini optimallashtirish evaziga yiliga 2,8 milliondan ortiq qog'oz varag'i tejalamoqda. "Learning management system" dasturiy ta'minotining ishga tushirilishi tufayli kombinat xodimlarini asosiy ish joyidan ajralmagan holda, onlayn o'qitish yo'lga qo'yildi. Bu tizim orqali yiliga 10 mingdan ortiq xodim onlayn o'qitildi. O'z navbatida, xarajatlarni 15 foizgacha qisqartirishga erishildi.

— Hozir biznes jarayonlarini optimallashtirish evaziga yiliga bir necha million qog'oz varag'i tejalyotganini aytdingiz. Bu, o'z navbatida, turli hisobotlarni kamaytirish, ma'lumotlarni jamlash va qayta ishlash kabi jarayonlarda ham raqamli texnologiyalarga tayanishni taqozo etsa kerak.

— Shunday. Ular bir-biri bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun so'nggi yillarda hisobotlarni takomillashtirish va ma'lumotlarni konsolidatsiyalash yo'nalishi bo'yicha ham bir qator ishlar olib borildi. Kombinatda hozir "katta ma'lumotlar" (Big Data)dan foydalangan holda, tahliliy ma'lumotlarni tayyorlashga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Bi tizimi ushbu yo'nalishda asosiy vosita hisoblanadi. Power BI axborot tizimi yordamida tezkor qaror qabul qilish uchun zarur tahliliy ma'lumot va dashboardlar joriy etilmoqda. U orqali ishlab chiqarish va korporativ axborot tizimlaridagi ma'lumotlar onlayn ravishda jamlanadi va qayta ishlanadi.

"Directum RX" — elektron hujjat almashinuvi tizimi joriy etilishi hisobiga korxonada ish yuritish jarayoni maqbullashdi. Shuningdek, ushbu tizimda hujjatlarining 200 dan ortiq elektron shabloni yaratilishi shartnoma va texnik topshiriqlarni kelishish, yig'ilish bayonnoma larini yuritish va loyihalar ijrosini nazorat qilish uchun qulay sharoit tug'dirdi. Bu orqali ijro intizomi bir necha barobar yaxshilandi, qog'oz hujjatlar almashinuvi 80 foiz kamaydi.

Yagona identifikatsiya tizimi (unique ID) va qog'ozsiz ish yuritish (Paperless work) konsepsiyasi doirasida kombinatning 36 mingdan ortiq xodimi yangi namunadagi ID-karta bilan ta'minlandi. Ushbu kartalar kombinat obyektlariga

Shu bilan birga, Mis boyitish fabrikasida texnologik jarayonlarga suv yetkazib berishni nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi tajriba sinovidan o'tkazildi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, yiliga 1,9 million kub metr suvni tashash mumkin bo'ladi.

Mazkur korxonada sun'iy intellekt texnologiyasini joriy etish doirasida flo-tatsiya texnologiyasi xususiyatlarini o'rganish uchun vizual nazorat kameralari o'rnatildi. Bu texnologik jarayonlarni 2 foizga optimallashtirish hamda reagentlar sarfini 5 foiz kamaytirishga olib keldi.

Joriy yilda Mis boyitish fabrikasining texnologik zanjiridagi asosiy qurilmalarni prediktiv diagnostika tizimi (uskunalarda avariya holatlarini erta aniqlash), Mis eritish zavodida elektroliz jarayonida qisqa tashuvlarning oldini olish bo'yicha tajribaviy loyihalar ishga tushirildi.

Hozirgi paytda kombinatda texnologik jarayonlarni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish va rivojlantirish asosiy vazifalar qatorida turibdi. Ishlab chiqarish bo'limlarida uskunalar faol ravishda modernizatsiya qilinmoqda. Zamonaviy nazorat o'lchov asboblari va avtomatika uskunalarini jihozlash, ularni korxonada dispetcherlik tizimlariga ulash ustida ishlar davom etmoqda.

— Bir yarim yil ichida avtomatlashtirish va raqamlashtirish sohasida 66 loyihaning amalga oshirilishi oson ish emas. Bu kadrlar salohiyati va ularning malakasiga ham borib taqaladi. Qolaversa, oldinda turgan ishlar ko'lami hali juda katta.

— 2023-yil yakuniga qadar ikkita mis boyitish fabrikasidagi ushbu tizimlar modernizatsiya qilinadi. Oltin qazib olish va mis boyitish korxonalarining yangi uchastkalariga ham ushbu texnologiyalar tatbiq etiladi. Ayni keza davomiy ifloslanishni monitoring qilish tizimi modernizatsiyasi yakuniga yetkazilyapti. Bu orqali atmosferaga gaz chiqindilari chiqarilishini onlayn monitoring qilish imkoniyati kengayadi.

Bugungi kunda kombinatimiz mutaxassislari tomonidan laboratoriya ma'lumotlarini boshqarish tizimi ishlab chiqilmoqda. Uning vazifasi tahlil natijalarini 100 foiz ro'yxatdan o'tkazish, hisobotlarni to'liq elektron shaklda yo'lga qo'yish va onlayn tahlil qilishdan iborat. OKMK obyektlariga tashriflarni nazorat qilish uchun "E-Ruxsat", nazorat-o'lchash asboblari ta'mirlashga qabulini joriy etish — "ARM KIPiA", "Maktabgacha ta'lim muassasalariga elektron navbat", "Elektron yo'llanmalar" va boshqa tizimlar ishga tushirildi.

Faoliyatimiz samaradorligi oshibishi-ga raqamlashtirishning asosiy tarkibiy qismlari — boshqaruv qarorlarining sifatli qabul qilinishiga qaratilgan ishonchli va tezkor ma'lumotlar olinishi, ishlab chiqarish tannaxirini 2-3 foiz kamaytirish, daromadni 3-5 foiz oshirish va bir qator muvofiqiyat natijalarga erishish uchun yagona ERP tizimi (Enterprise Resource Planning — korxonera resurslarini rejalashtirish), MES tizimlari (Manufacturing Execution System — ishlab chiqarish jarayonini boshqarish), operativ boshqaruv uchun kon-transport kompleksi tizimlari (ASU GTK) joriy etiladi. Qalmoqqir va Yoshlik-I konlarida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini yo'lga qo'yish tufayli tog' jinsini tashish hajmi 10 foizgacha, kon-transportdan foydalanish samaradorligi 5 foizgacha oshadi va yoqilg'i sarfi 9 foizgacha kamayadi. Ayni paytda ushbu loyiha amalga oshirilmoqda, tizimning birinchi bosqichini ishga tushirish joriy yil dekabr oyiga rejalashtirilgan.

Bu kabi ishlarni amalga oshirishda kombinatning IT va avtomatlashtirish sohasidagi mutaxassislar faoliyati muvofiqlashtirilgan holda, jamoaviy ish yuritish muhim ahamiyat kasb etadi. 2025-yilning oxirigacha OKMKda biznes jarayonlarni IT yechimlar bilan 98 foizgacha qamrab olish maqsad qilingan. Bunga erishish uchun kombinat nafaqat o'z tajribasiga tayanadi, balki xalqaro yirik kompaniyalar bilan hamkorlik qilishni davom ettiradi.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Abdurauf QORJOVOV suhbatlashdi.

lagan barcha korxonalarining 70 foizdan ortig'i hozirda mahalliy kengayish va replikasiya bosqichida, faqat 5 foiz korxonalariga optimallashtirish va innovatsiya bosqichiga yetgan.

Kombinatimizda joriy yilda rangli va qimmatbaho metallar ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha loyihaning joriy etilishi ma'danlarni qazib olish va qayta ishlash quvvatini sezilarli darajada oshirdi. Birinchi bosqichda yiliga 60 million tonna ruda ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan karyer, 60 million tonna misni

Jumladan, "SRK Consulting" kompaniyasi bilan birgalikda kombinat o'z faoliyatini boshlagan 1930-yildan to 2022-yilgacha shakllangan 2,5 mingga yaqin qog'oz hujjatlar elektron shaklga o'tkazildi. Natijada uzunligi 940 ming pogon metr dan ortiq burg'ilangan quduqlarning elektron ma'lumotlar bazasi yaratildi va jahon standartiga mos keladigan JORC kodeksiga muvofiq, mineral resurslar bo'yicha tegishli hisobot tuzildi.

Angren kon boshqarmasining "Qizil olma" va "Razvedochnaya" konlarida av-

Moziy sadosi — BUGUNNING OVOZI



ZIYORAT TURIZMI

Yurtimizda tarixiy qishloqlar, ko'hna obidalar, ziyoratgohlar ko'p. Ular xalq turmush tarzi, madaniyati, an'analari haqida ko'plab ma'lumotlar beruvchi qutlug' maskan, qadamjolar sifatida e'tirof etib kelinadi.

Farg'ona viloyatining Buvayda tumanidagi me'moriy obida va ziyoratgohlar o'lkamiz tarixiga oid qiziqarli ma'lumotlarni o'zida mujassam qilgan bilan ajralib turadi.

Buvayda olis o'tmishda Buyuk ipak yo'lining qo'nalg'asi sifatida qoraxoniylar, Amir Temur va temuriylar davri hamda Qo'qon xonligi hukmdorligi zamonida ham muhim hududlardan biri bo'lgan.

Xalq tilida Poshshopirim ziyoratgohi sifatida tanilgan Shoh Jarir tarixiy obidasi devorlariga ishlangan dastlabki bezaklar VIII-IX asrga taalluqli bo'lib, qishloqning nechog'liq qadimiy ekanidan dalolat beradi. Uning o'ziga xos ramzi bo'lgan ziyoratgohning kirish qismida temuriylar davrida qurilgan maqbara saqlanib qolgan. Tarixiy maskan ichkarisida XIX asrga oid binolar bor. Yigirma bir metrli minorra esa bir necha yuz yillar mobaynida buvaydaliklar uchun pok iymon ramzi bo'lib kelmoqda.

Dastlabki tadqiqotlar

1939-yilda mazkur ziyoratgohni ko'zdan kechirgan akademik Yahyo G'ulomov u haqda shunday yozadi: "Poshshopir mozor. Bu katta qabriston, ushbu nom asonaviy inson Poshshopir maqbarasi nomidan kelib chiqqan. Maqbara qabr turgan xona va ziyoratgohdan iborat. Maqbara peshtoqi g'arbga qaratilgan. Ziyoratxona gumbazining qurilish uslubi XVIII asrdagi madrasani eslatadi. Qabr joylashgan xona ikki chiqish yo'lidan iborat: biri ziyoratxona orqali, boshqasi janubga qaratilgan alohida pastakina xona orqali. Ko'rinishidan mazkur maqbaraga kirish yo'lga ziyoratxona qurilishi davrida berkitib yuborilgan. Mahalliy aholi maqbara qurilishini Amir Temur nomi bilan bog'laydi. Qabristonning katta maydoni ustki qatlam qattiq sho'rxok yerdan iborat bo'lib, unda O'rta Osiyoda mo'g'ullar hukmdorligi davriga

xos 54x54x6 o'lchamli pishiq g'isht parchalari uchraydi".

San'atshunos olim I.Azimovning ta'riflashicha, hozirga qadar saqlab qolingan ikki xonali Shoh Jarir va Baston buva hamda Bibi Buvayda kompleksi, asosan, to'rtburchakli hovlidagi o'n beshinchi asrda qurilgan peshtoqli-gumbazli darvozaxona hamda uning yon tomoniga xogirmanchi asrda qurilgan ochiq masjididan va ko'p qirrali hovlidagi XV-XVI asrlarga oid qabr va daxmalaridan iborat bo'lgan. Masjid tarhi to'g'ri burchakli xonaqoh hamda shifti mahalliy uslubda ishlangan



uch tomonli ayvondan iborat bo'lib, uni 44 ta ustun ko'tarib turadi. U Farg'onaga xos diniy inshootlar uslubida qurilgan, o'z davrining ulkan me'moriy obidalaridan biri sifatida baholalanadi.

Ziyoratgoh tarixini o'rganish bo'yicha mustaqil izlanish olib borgan buvaydalik jurnalist Sobirjon Otaboyev fikriga ko'ra, bu tarixiy maskanning Poshshopirim deb nomlanishi Bibi Ubayda bilan bog'liq. Mu-



hammad ibn Jarirning buvisi bo'lgan Bibi Ubayda nabirasini hamisha Poshshopirim deya erkalatgan. Ezgu duo ijobat bo'lib, uning ziyoratiga uzoq-yaqin yurt podsholari kelib turgan. Qo'qon xoni Xudoyorxon ham ushbu tabarruk maskanni ziyorat qilgan. — Xalq orasida yurgan rivoyatlarda Farg'ona viloyatidagi bir qator ziyoratgohlarning (Poshshopirim, Baston buva, Galdirbobo) bunyod etilishi va ta'mirlanishi

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar temuriylar davrida Farg'ona vodiysida harbiy mudofaa inshootlarining bunyod etilgani va ularning doimiy ta'mirlab borilganini ko'rsatadi. Shuningdek, temuriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot rivojlanishi, ko'plab ijtimoiy obyektlar qurilishida o'z aksini topgan bilan ahamiyatga ega.

Yangi davr — yangi imkoniyatlar

Mustaqillik qadim ziyoratgohga ikkinchi umr baxsh etdi. Uning hududi har jihatdan kengaytirilib, sharqona uslubdagi yangi binolar, xizmat ko'rsatish shoxobchalar, hunarmandchilik rastalari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Ma'lum bo'lishicha, Bandikushod buva, Bibi Ubayda, Poshshopirim, Baston buva — hayotini islom dini rivojiga baxshida etgan yaqin qarindoshlar. Bolalikdan Qur'oni yod olgan, urushlarda sarkarda sifatida qatnashgan bu amakivachchalar bir-biriga qo'shni qishloqlarda mangu qo'nim topgan.

— Asrlar davomida avlodlardan avlodga o'tib kelayotgan rivoyat va afsonalar zamirida shu yurt ahlining bunyodkorligi, matonati, ijtimoiy-iqtisodiy jabhalardagi hayot tarzi ko'rsatilgan, — deydi "Poshshopirim" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Keldiboy Saminov. — Ziyoratga yo'l mo'jaz kutubxonadan boshlanadi. Bu yerda diniy qo'llanmalar bilan birga, mumtoz va jahon adabiyotining sara asarlari, tarixiy qo'lyozmalar, osori atiqalarga alohida o'rin ajratilgan. Keyingi yillarda ziyoratgoh atrofi devor bilan o'raldi, barcha yo'llar asfaltlanib, obodonlashtirildi. Jome masjidi qurildi. Ayni kunda zamonaviy mehmonxona qurishni rejalashtirganmiz.

Ziyorat turizmi rivojlanmoqda

Qadamjolar mahalliy va xorijlik ziyoratchilar bilan gavjum. Ilgari bu ziyoratgohlarda xalq sayillari, majlislar bo'lib turgani keksalar faxr bilan eslaydi. Sobiq kommunistik mafkura davrida bu an'analar hozirga qadar yashab kelayotganiga sabab bo'lmoqda.

boy o'tmishi, ijtimoiy-madaniy hayotidan dalolat beruvchi qutlug' qadamjo va yodgorliklarni ta'mirlash, tadqiq qilishga bo'lgan e'tibor tufayli biz bilgan va bilimagan tarix tilimotlari haqida qiziqarli ma'lumotlar berilmoqda.

— Tumanimiz hududidagi XVI asrga oid 4 ta madaniy meros obyekti va 9 ta arxeologik yodgorlik mavjud, — deydi tuman hokimining o'rinbosari G'ayratjon Mamonov. — Ana shunday qutlug' madaniy meroslardan biri Bibi Obida maqbarasi bo'lib, bu yerda ayollar daxmasi mavjud. Uning shakli ikki gumbazli va maqbara ichkarisida Bibi Obida, Badigabonu va Shahzoda Shaxrubiy qabrlari joylashgan. Maqbara dastlab 1113-yilda qo'qonlik usta Batkulhabib va uning shogirdlari tomonidan bunyod etilgan. Ikkinchi qurilish 1413-1417-yilda Bog'irog' qishlog'ida bo'lgan mohir me'mor Salimjon usta tomonidan amalga oshirilgan haqida qaydlar bor.

Yana biri, Bandikushod ziyoratgohi — "Bandlarni yechuvchi zot" degan ma'noni anglatadi. Aytishlaricha, Bandikushod Shoh Jarir oilasining qo'riqchisi, otboqari bo'lgan. Aholi orasida shu kunga qadar Bandikushod ota karomatlari to'g'risida turli rivoyatlar yuradi. U kishi otlarni argonsiz "bog'lagan" ekan. Ya'ni otlarga "kushod-kushod", deb xitob qilsa, otlar yaylovga tarqalgan. "band-band", desa, otlar o'zlari avval turgan yerga tizilib, to'xtab turgan. Albatta, har bir rivoyat ortida ma'lum bir haqiqat yashirin. Shu maqsadda ziyorat turizmini ommalashtirish, mazkur majmualar haqida to'laqonli ma'lumotlar to'plash, ta'mirlash, ziyoratchilar uchun zarur shart-sharoit yaratish, targ'ib etish bo'yicha yangi loyiha va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratyapmiz.

Qutlug' qadamjo va ziyoratgohlar faoliyati bilan bog'liq rivoyat va afsonalar, ularning ochilmagan sir-sinoatlari ko'p. Ularni tadqiq etish, ilmiy asosda xulosalar chiqarish yo'lida olib borilayotgan izlanishlar qadimda xalqning madaniy hayot tarzi, bunyodkorlik amallari haqida ishonchli va to'laqonli ma'lumotlar berayotgani bilan e'tiborni tortadi.

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



MULOHAZA

KO'NGIL ISTASA, YOZDA HAM QOR YOG'ADI

KITOB DO'KONI BIR KUNDA QANCHA SAVDO QILADI?

Osmondagi lahza yalt etgan chaqmoq bilan ro'yi zaminni yoritib turgan boba quyoshni tenglashtira olasizmi? Ha, yashang. Kitob bilan internet orasida ham shunchalik farq bor. Kitob quyosh yanglig' qalblarni o'z nuri va tafti ila nurafshon qiladi, ilitadi.



Kitob badiiy tafakkuri o'stiradi, dunyoga teran boqishga o'rgatadi, inson qalbining nozik tuyg'ularini ro'yobga chiqaradi. O'h-ho', biz bilimagan yana qanchadan-qancha koni foydasi bor kitobning. Ota-bobolarimiz qalam degan xilqatni yaratish uchun Amudaryo bo'yilaridan qamish o'rib kelgan. Aytishlaricha, daryo bo'yilarida o'sgan qamishdan siflatli qalam yasalgan.

Qalam yashash uchun maxsus hunarmandlar ish olib borgan. Qog'oz tayyorlash mashaaqatini-ku, so'ramang. Bir kitobga jo bo'lgulik qog'oz tayyorlash uchun oylab mashaaqat chekilgan. O'sha paytlarda davlatning boyligini xazina bilan emas, kutubxonalar ko'pligi bilan o'lchashgan ekan.

Qaysi joyda kutubxona, kitob ko'p bo'lsa, u yurt boy va badavlat sanalgan. Kitobi ko'p yurtga olimlar, fozilu fuzalolar to'plangan. Akademiyalar barpo qilingan. Taraqqiyot shundan boshlangan, ya'ni kitobdan. Zamon o'zgardi, axborot ko'lami kengaydi. Kitob o'rni temir robotlar, yangil-yelpi axborot tarqatuvchi quurilmaier egalladi. Bir xumda yonib o'chadigan yangiliklar ko'ngil ovunchog'iga aylandi.

Mutolaa chanqog'ini internet tafti bilan qondirishga moyillik ortdi. Oqibatda badiiy tafakkur sustlashdi. Muomala izdan chiqdi, ko'ngilga qarab emas, ko'zga qarab bo'ralaydigan bo'lishdi. Oqibatsizlar ko'paydi. Eng yomoni, o'z va o'zlik tushunchasiga chirmoquv o'ralashdi.

Hissiyot va hayrat, xayolat va tuyg'u jo'shqinligi so'ndi. Bir taraflama fikrlayapsiz, degan iddaongiz o'rindi. Tuman markazini aylan-sangiz, dorixonalarni hijjalab ko'ring, nechta ekan, spirtili ichimliklar do'koni sonini ham. Yo'l-yo'lakay izlab topolsangiz, kitob do'koniga-da bir bosh suqing, kitob olmasangiz ham.

O'zingizdan qolar gap yo'q. Kitob o'qiyasizmi, uyingizda kitob javoni bormi, farzandingiz mutolaa qiladimi — bu bizga qorong'i. Bilganimiz shuki, tuman markazidagi kutubxona-do'konga sanoqliqina odam kiradi. Tahillarga ko'ra, aroq do'konida bir kunda 15 million so'mgacha savdo bo'larkan. Dorixonalarda 10 million so'm atrofida. Kitob do'konidan esa sanoqli odamlar savdo qilarkan, bu o'rtacha 200 ming so'mdan 500 ming so'mgacha.

Xulosa qilish o'zingizdan. Og'rinsangiz ham bir so'zni aytaylik. Oila davrasida, dasturxon boshida bir badiiy asar muhakamasi emas, "falochining bolasi undoq bo'pti-bundoq bo'pti" qabilidagi gaplar bilan andamon bo'lamis. Farzandimiz qachon kitob o'qidi, bo'sh paytida nima bilan shug'ullanyapti, do'stlari kim, qiziqmay qo'ydi. Televizor, internetdan bosh ko'tarolmay qolganimizga ancha bo'ldi. Bunday holat qachongacha davom etarkan? Oxiri nima bilan tugaydi?

Kitobdan uzoqlashib qayergacha boramiz. Mutolaadan uzoqlashish o'zimizdan uzoqlashishdir. O'zidan uzoqlashgan odamni kim desa bo'ladi? Gapi-sak, aytasak, yozsak, kuyunsak arziydigan mavzu. Xo'sh, yechim bormi? Bor. Ko'ngil istasa, qishda qor yog'adi. Har neki istasang, o'zingdardur. Kitob o'qishni o'zimizdan boshlaylik. Bugunoq. O'zimiz bilganni, o'qiganni farzandimizga ilimiylik. Kitob o'qishni o'rgataylik. Bu majburlashday gap. Erish tuyulmasin-u, ezgu ishga majburlash — yomonlikka beparvoildan yaxshiroq.

Nega ta'lim maskani peshtoqiga "Maktab kutubxonadan boshlanadi" deb katta harflar bilan yozib qo'ymaymiz? O'qituvchi yangi darsni boshlashdan oldin uch daqiqa kim qaysi kitobni o'qigani haqida o'quvchilar bilan suhbat qursa, nur ustiga nur bo'lardi. Rahbar majlisdan oldin adabiyot haqida, mutolaa haqida qo'l ostidagilarga tashviqot qilib o'rnak bo'lsa yomonmi? Ko'cha-ko'ya reklama bannerlarida kitob reklamasini ko'rmaysiz. Ko'ngil toshday dag'allashib bormoqda kitobsiz.

Biz kitob haqida donishlardan ko'chirmalar keltirmadik. Xulosa o'rinda shuni aytmoqchimiz, kitob xiyonatni bilmaydigan eng yaqin do'st, sirdosh. U sizga hayotda to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi ustoz, adashsangiz yo'lga boshlovchi shamchi-roq, qoqilsangiz tirgak bo'luvchi suyanchiq.

Shunday ekan, bugundan ezgulik yo'lini tuting, birrov kutubxonaga kirib kitob oling. Eng baxtiyor odam — qo'lda, uyida kitobi bor odam.

Hasan ARABOV,
jurnalist



SAYYOHLIK MAHALLASI

AMIR TEMUR YARATGAN ANJIRZOR

Samarqand shahridagi Bog'ibaland mahallasi mamlakatda birinchi sayyohlik mahallasi sifatida e'tirof etildi.



Mazkur voqea munosabati bilan tashkil etilgan tadbirda mahalla fuqarolar yig'ininga maxsus guvohnoma topshirildi. Tantanali marosim an'anaviy anjir hosili bayramiga ulanib ketdi. Bu bejiz emas.

Negaki, bu hududda bir paytlar Sohibqiron Amir Temur tashkil etgan 12 ta bog'dan ittisi, ya'ni anjirzor saqlanib qolgan. Mahallada istiqomat qiluvchi 4 ming 700 fuqaroning qariyb 80 foizi fermer xo'jaligiga birlashib, anjir yetishtirish bilan shug'ullandadi.

— Anjirzorning umumiy maydoni 40 gektardan ortiq, — deydi xo'jalik rahbari Rustam Muinov. — Agar adashmasam, butun mamlakatimizda bunday ko'lamdagi anjirzor yo'q. Hozir bu yerdagi anjir daraxtlarining umumiy soni 10 ming tupdan ko'proq. Ular orasida 200-yillik anjirlar ham bor.

Rustam Muinovning aytishicha, uning oilasi anjirzor bog'ning uchinchi avlodiga mansub daraxtlarga egalik qilarkan. Bog' avval juda katta bo'lgan, avvalgi yillarga nisbatan hozir qariyb 10 gektarga qisqarib ketgan.

Bog'ning tarixi juda qiziq. "Boburnoma" asarida aytilishicha, mazkur anjirzor Amir Temurning suyuqli nabirasi Mironshoh Og'abegim sharafiga yaratilgan. Buyuk Sohibqironning topshirig'iga ko'ra, dastlab munajjmlar bog'ni barpo etish uchun uzoq vaqt joy izlagan. Bu meva daraxti subtropik bo'lib, suvni yaxshi ko'rgan uchun Zarafshon daryosi yaqinidan joy tanlangan.

— Afuski, Samarqandda Amir Temur barpo etgan 12 ta bog'dan hozir faqat ittisi — shu anjirzorigina mavjud, qolgan 11 tasi yo'qolib ketgan, — deya so'zida davom etadi.

R. Muinov. — Shuning uchun Sohibqironning so'nggi bog'ini saqlab qo'lishdek katta mas'uliyatni his qilib ishlaymiz. Menimcha, mahallamizga yangi maqom — sayyohlik mahallasi nomi berilishi bog'imizning yanada gullab yashnashiga xizmat qiladi.

Aytish joizki, Bog'ibaland mahallasi nafaqat Amir Temurning anjirzor bog'i, balki o'z hududida saqlanib qolgan "Qizilartepa" arxeologik yodgorligi, Xo'ja Is'hoqi Vali masjidi, mahalliy va

xorijiy sayyohlarga xizmat qiluvchi tibbiyot maskani, kichik hunarmandchilik markazi, zamonaviy mehmon uylari tufayli ham ana shunday mavqega ega bo'ldi.

— Mazkur obyektlarning barchasi o'zining betakror sayyohlik jozibadorligiga ega ekanini bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi, — deydi "Bog'ibaland" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Murod Nuriddinov. — Umid qilamizki, endilikda bu yerda xorijiy sayyohlar oqimi yanada ko'payadi va mahallamizning iqtisodiy rivoji uchun yangi imkoniyatlar ochiladi.

Mamlakatimizdagi ilk sayyohlik mahallasi hududida hozir anjir mevasidan tatib ko'rish uchun 15 ta so'ri, Axborot markazi, Hunarmandlar uyi tashkil etilgan. Bu yerda xorijiy sayyohlar hunarmandchilik buyumlarini nafaqat tomosha qilishi, balki ularni tayyorlash jarayonida bevosita qatnashishi ham mumkin.

— Men ushbu tadbirda ishtirok etayotganimdan judayam xursandman, — deydi germaniyalik sayyoh Irm Shtayner. — Rostini aytсам, bunday mazali mevani shu yoshga kirib, hali tatib ko'rmaganman. Menga, ayniqsa, anjirni daraxt shoxlaridan uzib olishga ruxsat berishgani juda yoqdi. Ana bir jihati shundaki, anjirni yetishtirish uchun hech qanday kimyoviy dorilar ishlatilmas ekan. Ular tabiiy usulda parvarish qilinarkan. Bu esa hozirgi sharoitda inson salomatligi uchun g'oyat muhim omildir. Shuning uchun men bir necha kilogramm anjirni qurtitilgan va konservalangan holda Germaniyaga olib ketmoqchiman.

Qayd etish joiz, mahallaga yangi maqom berilishi bilan bu yerda yo'l-transport infratuzilmasi yaxshilanib, yuqori tezlikdagi internet tarmog'i yo'lga qo'yildi hamda sayyohlar uchun yana boshqa bir qator qulayliklar yaratildi.

Yormamat RUSTAMOV,
jurnalist



uznews




yuz_official



yuz.uz_news

ABU RAYHON BERUNIY TAVALLUDINING 1050 YILLIGIGA

Bu yirik madaniy yodgorlik



Sharqning buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniy asarlari allaqachon dunyo olimlari tomonidan butun insoniyatga mansub bebaho ilmiy meros, deb e'tirof etilgan. Xususan, J.Reno, E.Zaxau, G.Zuter, J.Sarton, M.Meyerrxof, S.X.Nasr, M.Kozim, M.Nizamutdin kabi Yevropa va Osiyo olimlari allomaning qator asarlarini tarjima qilibgina qolmay, unga yuksak baho bergan.

Hulkar HAMROYEVA, O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi dotsenti, filologiya fanlari doktori



Buyuk mutafakkir va qomusiy olimning asarlari bayon uslubining faqulodda ta'sirchanligi va ilmiy tahlillarining mukammalligi bilan e'tiborni tortadi. U dunyo fanlari xususida, mam-lakatlar va millatlar o'tmishi va madani-yati, dini, qadim xalqlar urf-odatlari, qadriyatlar haqida fikr yuritir ekan, har bir hodisani tarixiy voqealik bilan bog'liq holda tahlil uslubi orqali tadqiq etadi.

Jumladan, kindik qoni tomgan mo'tabar zamin — Xorazm bayramlari, nishonlanadigan turli udumlar, ras-mrusumlarining kelib chiqishi, ularning ma'rifiy-axloqiy jihatlari eng kichik tafsi-lotlarigacha olimni qiziqtiradi.

“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarining XI bobi “Xorazmliklar-ning bayram kunlari” deb nomlangan. Akademik A.Ahmedovning fikricha, “Beruniyning ushbu asari ma'lumot va xabarlar shu qadar boyki, ular-dan qay birini oldinga qo'yish yoki alohida ajratishga qiynalassiz. Lekin, menimcha, bu xabarlarining eng qim-matliisi qadimgi Xorazm haqidagi xabarlardir. Albatta, Beruniyning bu xabarlari uning o'zi tarafidan to'qilgan uydirma yoki havoyi gaplar emas, u bu ma'lumotlarni bizgacha yetib kel-magan qandaydir manbalardan yoki

1997-yilda Xiva shahrining 2500 yil-ligi Parijda ham nishonlandi. Shu mu-nosabat bilan O'zbekiston xalq artisti Gavhar Matyoqubova mashhur “Lazgi afsonasi” raqs-kompozitsiyasini sahn-la-lashtirdi. Ko'hna rivoyati afsonalar asosida “Lazgi”ning yaratilishi, undagi hayotga muhabbat kabi g'oyalari raqqo-salar guruhi ijrosida tarannum etildi. To'qqiz “Lazgi” tarix halqalari sifatida yorug'lik, harorat manbai bo'lgan olov atrofida birlashadi, qayroq sadosi os-tida olov bilan raqs tushadi, tillashadi. Ular-da Beruniy bobomizi tilga olgan “olov yoqdi”, “olovda isindi” holatlari o'ta jo'shqin va jozibali raqs harakat-larida aks etadi. O'shanda hayratdan lol qotgan tomoshabinlar tik turgan-cha uzoq olqishlagan.

Faxr bilan aytilish mumkinki, Xorazm-ning eng qadimiy “Lazgi” raqsining uch ming yillik tarixini yozishda Gavhar Matyoqubova “Avesto” kitobidagi diniy manbalarga, marosimlarga hamda Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida tasvirlangan e'tiqod va udumlarga, il-miy xulosalarga asoslandi. Yig'ilgan ma-teriallar UNESCOning Parij shahri-dagi qarorgohiga yuborildi. 2019-yilning 12-dekabr kuni Kolumbiyaning Bogota shahrida UNESCOning Nomoddiy me-rosni muhofaza qilish va asrash bo'yicha hukumatlararo qo'mitasi 14-sessiyasida qadim Xorazm tashrif qog'o'zi — o'zbek milliy raqsi “Lazgi” insoniyat nomod-diy merosining representativ ro'yxatiga O'zbekiston madaniy merosining ele-menti sifatida ovoz bermasdan, keng konsensus asosida kiritildi.


“Lazgi” turkumidagi raqs — o'yinlarning tarixi, xoreografik tavsifi, bir qator harakatlar tizimi, ifoda usul-lari Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari-dagi qadimiy e'tiqod marosimlari haqi-dagi ma'lumotlar asosida tiklandi. Zero, bu asar xalq ijodiyotidagi muhim man-ba sifatida ham nihoyatda qadrlidir. Unda bayon etilgan qadimiy ajdodlarimizning urf-odatlarini, udumlarini, o'yinlari dastlab ibtidoiy ko'rinishda bo'lsa, keyinchalik maxsus tayyorgarlik ko'rilib, tomosha va sayillarda ijro etila boshlagan.

Darhaqiqat, ona yurt tarixini, uning o'tmishida ro'y bergan voqea va hodis-la silsilasini xolisona bilmasdan turib, milliy o'zlikni anglab bo'lmaydi. Ilk xalq

sayillarida ijro etilgan qo'shiq, marsiya, alqov, goh, arg'imchoq uchish vaqtlar o'tib, milliy raqs harakatlari va holat-lariga aylangan hamda xalqimiz badiiy tafakkurining mahsuli sifatida o'z qim-matini saqlab, bizgacha yetib kelgan.

Dunyodagi ko'plab olimlar qatori germaniyalik professor Tatyana Timm ham Xorazm “Lazgi” turkumining tarixi, etnografik xususiyatlarini bilan qiziqadi. O'tgan yili mazkur raqsning mamlakat turizmi salohiyatini yuksaltirishdagi o'rini o'rganish maqsadida Tosh-kentga keldi. Xorazmga borishdan oldin O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida bo'lgan davra suh-batida u qirqta savoli borligini aytdi. Shuncha savolning o'ziyoq olimaning “Lazgi” turkumini puxta o'rganganidan darak beradi. Uni ko'proq “Lazgi”ning uch ming yillik tarixi qiziqtirar ekan. Savollarning asosiy qismi ushbu raqs turkumining Xorazm xalqi etno-grafiyasi, urf-odatlarini bilan bog'liqligi haqida bo'lib, ularga javob berishda, eng birinchi navbatda, “Avesto” va “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorlik-lar” asariga tayandik. Tatyana xonim “Yodgorliklar”ning 1952-yilda Berlinda chop etilgan nusxasi haqida eshitgan ekan. Olima Abu Rayhon Beruniy asarlariga juda qiziqib qoldi va albatta, uning ilmiy merosi bilan yuqandani tani-shish niyati borligini aytdi.

Buyuk mutafakkir kitobda Sharq xalqlarining eng sevimli ayyomlaridan biri — Navro'z bayrami nishonlanadi-gan o'nying har bir kuni haqida keng to'xtaladi. Navro'zning etimologiyasi, tarixi, u bilan bog'liq udumlar, ras-mrusumlar, irimlar haqida ham eng kichik tafsi-lotlarigacha mukammal ma'lumot berilgan. “Navro'z yangi yilning birin-



“Lazgi” turkumidagi raqs — o'yinlarning tarixi, xoreografik tavsifi, bir qator harakatlar tizimi, ifoda usullari Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asaridagi qadimiy e'tiqod marosimlari haqidagi ma'lumotlar asosida tiklandi. Zero, bu asar xalq ijodiyotidagi muhim manba sifatida ham nihoyatda qadrlidir. Unda bayon etilgan qadimiy ajdodlarimizning urf-odatlarini, udumlarini, o'yinlari dastlab ibtidoiy ko'rinishda bo'lsa, keyinchalik maxsus tayyorgarlik ko'rilib, tomosha va sayillarda ijro etila boshlagan.

kim barakatta erishish uchun tos yoki boshqa idishlarga arpa ekan. Keyin podshohlar saroylarining sahn-i atrofiga yetti taxtaga yetti xil don ekish rasm bo'lib qolgan. Bularning unib chiqishiga qarab, shu yilgi g'allaning to'liq yoki puch bo'lishi taxmin qilin-ar ekan”.

Xorazmda eng qadim zamonlardan sumalak saylida “Ashshadarozi” o'yini urf bo'lgan. Bu o'yinda aynan suma-lak uchun bug'doy ekishdan boshlab, Navro'zda yetti xil taom pishirish, uni qo'ni-qo'shnilarga tarqatish udumlar-i ifoda etiladi. Haruzo suv farishtasi, uning nasabi suv bilan birdir. Shuning uchun odamlar shu kuni tong yorishgan paytda o'rnlardan turib, anhor va hovuzlarga boradilar. Ko'pincha oqib turgan suvlar-dan idishlarda suv olib, barokatti bo'lish va ofatlarni daf etish uchun ustlaridan suv quyadilar. Shu kuni odamlar bir-biriga suv sepadi. Mashhur folklor raqsi “Xo'bimboy”da aynan “ustidan suv quyish”, “suv sepih” holatlari mavjud bo'lsa, “suv mavji”, “to'lqin” harakatlari

urf-odatlar haqidagi ilmiy xulosalariga asoslanib tayyorlandi.

Darhaqiqat, o'zbek milliy raqs san'atining, xususan, uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan Xorazm makta-bining qadim ildizlari insoniyatning ilk kurtaklari bilan tutashib ketgan bo'lib, uning shakllanish bosqichlari aynan Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida nomlari tilga olingan marosim va urf-odatlar bilan chambarchas bog'liq. Ibtidoiy davrda qarsak, tayoq va toshlarni urishtirish, hayvonlarga taqlid orqali hosil bo'lgan tovushlar vaqt o'tishi bi-lan asta-sekin shakllanib, ma'lum maz-munga ega musiqiy usullarga aylanib bordi. Qadim qal'alardan topilgan sopol idishlarda, qoyatoshlarga muhrlangan rasmlarda aynan shu marosimlar ham aks etgan.

Allomaning bayramlar va urf-odatlar haqidagi falsafiy ta'limoti negizida in-sonni yetuklikka chorlovchi, uning ta-fakkuri va dunyoqarashini boyituvchi omillar kabi ko'plab masalalar o'rin ol-gani e'tiborga sazovordir. Misol uchun, “Missaxanirid” bayramini olim shunday ta'riflaydi: “Bu Jiri (oy)ning birinchi kunida bo'lib, “Jovard Minik”, ya'ni “Qo-voq bayrami” ham deyiladi”.

“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorlik-lar” insoniyat tarixi, urf-odatlariga oid dastlabki yozma manbalardan biri si-fatida jahonning ko'plab olimlari tomoni-dan o'rganilgan. Qadimgi ajdodlarimiz olam va odam to'g'risidagi tasavvur-larida ma'naviy qadriyatlar xalqni jips-lashtirib, turli millatlar o'rtasida meh-r-muhabbat tuyg'usini mustahkamlashga xizmat qilganini ta'kidlagan.

Etnograf olim Komiljon Nurjonovning fikricha, “Bugungi kunda Xorazmda nishonlanadigan “Qovun sayli”, “Sholi sayli” kabi bayramlar, aslida, Beruniy bobomizning “Yodgorliklar”da tilga olingan “Qovoq bayrami”ning mantiqiy davomi. “Mehrijon” va “Qovoq bayrami” hozir ham o'tkaziladi. Chunki odamlar hamma zamonlarda ham oilasiga ke-ladigan qut-barakani, to'kinlikni, mo'l hosilini shunday tantana qilganlar. Ular-ni shukronalik bayramlari, desak ham bo'ladi”.

Demak, insoniyat taraqqiyotining har bir bosqichi o'ziga xos ma'naviy-ma'rifiy olamning, madaniy an'analarning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Madaniy meros insonlarning bir-birlariga bo'lgan o'zaro munosabatlari asosida shakl-lanib, sayqallanib boradi.

Ulug' allomaning bayramlar, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar haqidagi mulohazalari zamonaviy etnografiya va san'atshunoslik, madaniyatshunos-lik ilmlari uchun muhim ahamiyatga ega. U turli xalqlarning qadriyatlar-i haqida xolisona fikr bildiradi, uning xu-lusalarida mavhumlik, ikkilanish yo'q. Beruniy har bir fikrini ilmiy-ma'rifiy ji-hatdan asoslash uchun ko'plab man-balarga, rivoyat va miflarga murojaat qiladi. Asarning bir o'rida “Qutayba

Ibn Muslim al-Boxilii xorazmliklarning kotiblarini halok etib, bilimdonlarini o'ldirib, kitob va daftarlarni yondirgani sababli ular savodsiz qolib, o'z ehtiyoj-larida yodlash quvvatiga suyanadigan bo'ldilar. Shunday bo'lgach, kelishib ol-ganlarini yodda saqlab qoldilar”, dey-ladi. Bu fikrlar qadim o'lka madaniyati, ilm-fani qatorida san'atga, xususan, Xorazm raqsilariga ham taalluqli.


XX asrgacha barcha raqs, ular-ni nomlari, ifoda uslublari, harakat-lari va holatlari ham, asosan, yodda saqlash, og'izdan-og'izga o'tish usuli orqali saqlanib qoldi hamda fidoyi san'atkorlar tufayli bugungi avlodlarga yetib keldi.

Mamlakatimizning kelajagi tinch-lik va bag'rikenglik, madaniyatlararo uyg'unlik va millatlararo totuvlik kabi omillar bilan chambarchas bog'liq. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, “Vata-nimiz o'z taraqqiyotining yangi bos-qichiga qadam qo'yayotgan bugungi kunda biz uchun qadimiy tariximiz va madaniyatimizga oid yangi ilmiy tad-qiqotlar har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega”.

Ma'lumki, marosimlarni mifologiy, diniy, badiiy, ilmiy va ilmiy-falsafiy, ma'naviy-ma'rifiy talqin etish amaliyoti tarixan mavjud. Albatta, har bir talq-in-da tushunchalar o'zgaracha mazmun kasb etishi mumkin. Ayniqsa, “Qa-dimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” kabi noyob asarlarning ilmiy-falsafiy, ma'naviy-ma'rifiy ta'siri inson kamo-loti va ijtimoiy taraqqiyot uchun alo-hida ahamiyat kasb etadi. Alloma tarix voqealarini sharhlar ekan, moziyning turli davrlaridagi yuksalish va tanaz-zullar, Sharq uyg'unlash davri, diniy va dunyoviy bilimlar rivoji, kashtiyotlar va ma'naviy inqirozlar haqida o'z mulo-hazalarini bildiradi. O'z urf-odatlarini muqaddas bilgan, har qanday sha-roitda ilm-ma'rifatga intilgan Xorazm madaniyati dunyodagi eng boy va ko'hna, serqirra madaniyatlardan biri ekanini qayta-qayta ta'kidlaydi.


Yangi O'zbekistonda har bir mil-latning qadriyatlarini asrab-avay-lashga, dinlar va millatlararo hamji-hatlikni yanada mustahkamlashga, avlodlar o'rtasida qadimiy mush-tarak an'analarni rivojlantirishga, jamiyat-ni takomillashtirishga, inson omilini e'zozlashga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Jahon tamadduni ravnaqi-ga, umumbashariy qadriyatlar silsilasi-ga salmoqli hissa bo'lib qo'shilgan “Qa-dimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari o'rta asrlar tarixi, madaniyati, turli xalqlar urf-odatlar haqida o'ta noyob ma'lumot beruvchi nodir manba si-fatida g'oyat qimmatlidir. “Xorazmliklar bujlarni arablardan yaxshiroq bilgan-lar”, deydi olim faxr bilan.

Kitobda turli xalqlarning ijtimoiy munosabatlari, madaniy turmush da-rajasi, e'tiqodlari, o'sha davr tartib-lari, qoidalari va axloq me'yorlari aks etadi.



uning davrida Xorazmda tarqalgan og'zaki rivoyatlardan olgan”.

Qadimshunos sifatida Abu Rayhon Beruniyning mushohadalari va qiyos-lari aniq, mulohazalari bugungi kunda ham turli soha tadqiqotchilariga yangi g'oya bera oladi. “Amvri. Bu o'ying birinchi kuni Azdokand Xvar bo'lib, ma'nosi “Yog'li non yeish kuni”dir. Xorazmliklar shu kuni sovuqdan uy-lariga kirib, olov yoqilgan o'choqlar atrofida to'planadilar va yog'li non yei-dilar”. Qadimiy raqslardan biri “Tandir o'yini”da aynan xamirga yog' surish, chakich urish, uni yertandirga yopish, o'choqqa o't yoqib, atrofida yog'li patir yeish, bolalarga kulcha ulashish chi-royli raqs harakatlarida ifodalana-di.



chi kuni bo'lib, uning forscha nomi ham shu ma'noni anglatadi. Navro'z olam-niing boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan”, deydi olim. “Jamshid o'ziga arava yasab olgach, o'sha kuni unga chiqdi. Odamlar bu ajoyib voqeani ko'rgach, Jamshidga (aravada uchishi-ga) taqlid qilib, arg'imchoqlarda uch-dilar”, deya o'z fikrini davom ettiradi. Xorazm raqs maktabining eng qadimiy raqs-laridan biri — “Qizil gul bayrami” hisoblanadi. Bu bayram aynan Navro'z kunlarida nishonlangan. “Qizil gul bayrami” raqsining mohiyati “gul otish” va “arg'imchoq uchish” harakatlarida ifodalana-di.

Olimning fikricha, “Hamma qurigan novdalar ko'kargan va odamlar “Ro'zi nav”, ya'ni “Yangi kun” deganlar. Har Xorazm raqs maktabining asosiy ifoda uslublari hisoblanadi.

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi olimlari tayyorlagan “Mu-siqa va san'at o'quv muassasalari uchun “Bolalar raqs-lari” fanidan inter-aktiv o'quv-metodik qo'llanmalar yarat-ish” mavzusidagi amaliy loyihaning Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri-li-gi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan moliyalashtirilishi o'zbek bolalar raqs san'ati tarixini tik-lash, unutilayotgan folklor raqs-lari-ni xoreografik tavsifini yaratilishi uchun katta imkoniyat bo'ldi. Xususan, “Chog'olloq”, “Qovun-qovun o'yini”, “Xo'bimboy” kabi qadimiy bolalar raqs-lari tarixi va yozuvi Abu Rayhon Beruniyning Xorazm bayramlari va

Demak, insoniyat taraqqiyotining har bir bosqichi o'ziga xos ma'naviy-ma'rifiy olamning, madaniy an'analarning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Madaniy meros insonlarning bir-birlariga bo'lgan o'zaro munosabatlari asosida shakl-lanib, sayqallanib boradi.

Ulug' allomaning bayramlar, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar haqidagi mulohazalari zamonaviy etnografiya va san'atshunoslik, madaniyatshunos-lik ilmlari uchun muhim ahamiyatga ega. U turli xalqlarning qadriyatlar-i haqida xolisona fikr bildiradi, uning xu-lusalarida mavhumlik, ikkilanish yo'q. Beruniy har bir fikrini ilmiy-ma'rifiy ji-hatdan asoslash uchun ko'plab man-balarga, rivoyat va miflarga murojaat qiladi. Asarning bir o'rida “Qutayba

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati DUK

MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Qabulxon: (71) 233-56-33

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Devonxon va e'lonlar: (71) 233-70-98

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun unobunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma 1046.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzili: 100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 00:00